

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINING MA`NODOSH VA ZID MA`NOLI SO`ZLAR YORDAMIDA OG`ZAKI NUTQINI O`STIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Aziza Hatamjon qizi Jonibekova

Guliston davlat universiteti ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo`nalishi
2-kurs magistranti (Guliston shahar 3-umumta`lim maktabi)
jonibekovaaziza29@gmail.com

Saodat Ulug`bek qizi Xaitmamatova

Guliston Davlat Universiteti Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo`nalishi 2-
kurs magistranti (Guliston shahar 17-umumta`lim maktabi)
xaitmamatovasaodat@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarning so`z boyligini interfaol usullardan foydalanib oshirish haqida berilgan. Shuningdek, interfaol usullar haqida batafsil ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: boshlang`ich sinf, ona tili, interfaol, usul, so`z boyligi, axborot kommunikatsion texnologiyalar, didaktik o`yin, sinonim, antonim, so`z ma`nosi.

ABSTRACT

This article is about increasing students' vocabulary in primary school lessons using interactive methods is also provided.

Keywords: primary school, mother tongue, interactive, methods, vocabulary, information and communication technologies, didactic game, synonym, antonym, word meaning.

KIRISH

Yangi O`zbekistonning kelajagi yosh avlod qo`lida ekanligi hech kimga sir emas albatta. O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta`lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo`nalishlarini belgilash, o`z kelayotgan yosh avlodni ma`naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko`tarish, o`quv-tarbiya jarayoniga ta`limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida 2019-yil 29-aprelda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli "Xalq



ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to`g`risida”gi farmoni qabul qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O`zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni ijrosini ta`minlash maqsadida “2020-2030-yillarda o`zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” qabul qilindi. Bu mamalaktdagi davlat tili to`g`risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o`zbek tilining xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro` - e`tiborini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikamiz uzluksiz ta`lim tizimida umumiy o`rta ta`lim asosiy tayanch bosqich bo`lib, bu borada o`zbek tilidan o`quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og`zaki va yozma muloqot olib bora olishlariga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi va o`qitishning kommunikativ - nutqiy tamoyili asosida o`quvchilarda o`zbek tili bo`yicha egallagan bilim va ko`nikmalarni muloqot faoliyati jarayonida qo`llash malakasi shakllantiriladi.

Boshlang`ich sinflarda o`tiladigan ona tili, matematika, o`qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra ta`lim tizimida alohida o`rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta`limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang`ich ta`lim darslariga o`quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e`tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang`ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so`zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o`qituvchilar turli didaktik o`yinlardan foydalanishmoqda.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta`milaydigan yosh avlodning sog`lom va barkamol bo`lib yetishi hal qiluvchi o`rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko`lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o`z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug` maqsadni qo`yar ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug`beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta`lim va tarbiyani rivojlantirish , sog`lom turmush tarzini qaror



toptirish, lim-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga kata maqsadlarni qo'yib, ularga erishishlari uchunkeng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda “Yangi O'zbekiston – maktabdan ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiramiz.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega Vatanimizning taqdiri va keljagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish uchun mamlakatimizda keng ko'lamlı ishlar olib borilishi lozimligini ta'kidlagan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati» da 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan bo'lib, bular umumiy qo'llaniladiganlaridir. Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning



yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu ichiga quyidagilarni oladi:

1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan, nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrofni o'rab olgan muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarniig o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H. Olimjon, M. SHayxzoda, G'. G'ulom, H. Hakimzoda Niyoziy, Zulfiya, Uyg'un, A. Qahhor, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, SH. Sa'dulla, Z. Diyor kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy

obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlataladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi. Bulardan tashqari, kinofilm va televizor eshittirishlarining matnlari, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi.

Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «Imlo lug'ati» mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan muvaffaqiyatli foydalanadi. So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Soʻzning maʼnosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan oʻquvchilar diqqatini chalgʻitmasligi kerak. Buning uchun oʻqituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida maʼnosi tushuntirilishi lozim boʻlgan soʻzlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi oʻrnida tushuntirishni belgilab oladi.

Oʻqish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar maʼnosini bilmaydigan ayrim soʻzlar matnni oʻqishdan oldin tushuntiriladi. Matnni oʻqish jarayonida soʻz maʼnosini tushuntirishga chek qoʻyish kerak. Agar biror soʻzni matnni oʻqish vaqtida tushuntirish zaruriyati tugʻilsa, matn mazmunidan oʻquvchilar diqqatini chalgʻitmagan holda shu soʻz maʼnosi qisqacha tushuntiriladi. Koʻchma maʼnoda ishlatilgan obrazli soʻzlar va badiiy nutq oborotlari matn oʻqilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning maʼnosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar oʻqilganda, undagi koʻchma maʼnoda ishlatilgan soʻzlarni asarni oʻqishdan oldin yoki oʻqish jarayonida tushuntirib boʻlmaydi.

Metodikada soʻzlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. Soʻzni kontekst asosida tushuntirish. Bunda oʻquvchilar tushunmaydigan soʻz ularga tushunarli soʻzlar qoʻllangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. Soʻz maʼnosini lugʻatdan va oʻqish kitoblaridagi matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda oʻquvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, soʻz maʼnosini mustaqil tushunib olishga oʻrgatish muhim ahamiyatga ega.

3. Soʻz maʼnosini shu soʻzning maʼnodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo – shabada, mudofaa himoya, sozanda – musiqachi, diyor – vatan, inshoot – bino, samo - osmon kabi soʻzlarni sinonimlarini tanlash bilan tushuntirganda, shu soʻzning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham koʻrsatish zarur.

4. Tanish boʻlmagan soʻz bilan ifodalangan tushunchani tanish boʻlgan soʻz bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgoʻy soʻzini yolgʻonchi soʻziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

5. Soʻzni oʻzigayaqin boʻlgan tushuncha bilan, yaʼni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan soʻzning izohi qisqa va aniq boʻlishi kerak. Masalan, oʻzboshimchalik – oʻz xohishicha

ish tutish, ishni oʻzi xohlaganicha bajarish; mutaxassis – biror

hunar egasi; shunqor – uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh – mol terisidan tikilgan idish; guldon – gul solib qo'yiladigan idish va boshq.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; ekskavator - bir vaqtning o'zida yerni qazib tuproqni yuk tashuvchi mashinaga ortib beradigan mashina; aerodrom -samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hok.

6.So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7.Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi *lug'at tarkibi* yoki *leksika* deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Metod aslida yunoncha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, “bilish va tadqiqot yo'li”, “nazariya”, “ta'limot” kabi ma'nolarni bildiradi, voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi.

Metodikani egallamagan inson esa ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmun jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi

mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka hos boʻlgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishiga borib taqaladi. Inson dastlab atrofidagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, oʻxshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarni toʻplab boradi. Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod oʻz navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita boʻladi. Oʻrta osiyo olimlaridan Farobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalarfan metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga boʻlib, ularning bir qismini ilmiy kashfiyotlarni ochishda qoʻllaniladigan yoʻl-yoʻriq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan. Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshishdi. F.Bekon, G.Galiley, R.Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishgan.

Hozirgi zamon fanlarida koʻplab umumiy, xususiy ilmiy metodlar qoʻllaniladi. Zamonaviy ilmiy metodlar tadqiqotchilarga dunyo sir-asrorlarini ochishda yordam bermoqda. Ona tilini oʻqitishda foydalaniladigan metodlarga psixologlar oʻzgacha munosabatda boʻldilar. Proffesor V.A.Artemovning fikricha psixalogiya metodika uchun material beradi. Metodika oʻqituvchining qaanday dars oʻtishini oʻrganadi. Psixalogiya esa, oʻquvchilarning bu predmetni qanday oʻzlashtirib olayotganliklari bilan shugʻullanadi. Lenin, bu fikrga toʻla qoshilib boʻlmaydi. Chunki oʻqituvchi dars berish jarayonida, oʻquvchi esa oʻzlashtirish davrida maʼlum ruhiy jarayon va holatlarni boshdan kechiradilar, ular xohlaydilar, yoʻqmi psixalogiyaning qonunlariga roʻbaro boʻladilar va taʼsirlanadilar. Ona tili oʻqitish metodikasi didaktika bilan uygʻun, oʻzaro bogʻlangan holda rivojlanib kelgan. Barcha oʻquv fanlarining oʻqitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi barchamizga maʼlum. Ona tilini oʻqitish ham didaktikaga asoslanadi.

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida oʻquvchilarga oʻzbek tilini oʻrgatish, ona tilini egallash, yaʼni nutqni, oʻqish va yozishni, grammatika va imloni oʻrgatishi uchun oʻqituvchi metodika bulan yaxshi qurollangan boʻlishi kerak. Oʻqish va yozishga oʻrgatishda bilim va koʻnikmalarning shakllanishi jarayonida oʻquvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni oldindan koʻra bilishi, xatolarning sababini tahlil qilishi, ularning yana takrorlanishinnig oldini olishi va toʻgʻirlashga yordam beradigan metodlardan foydalanishi kerak. Ona tilidan beriladigan oʻquv materialini oʻquvchilar aniq tushunishi va puxta oʻzlashtirishiga, ulardan olgan bilimlarini amaliyotda



qiyinchiliklarsiz qo'llay olishlari va o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya'ni ularning zehnini, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o'ylashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan metod va vositalardan o'z o'rnida unumli foydalana olishi kerak.

Fanlarning o'qitilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun metodlarning o'rnini juda kata. Hozirgi davrda ona tili fani bo'yicha o'quv dastur va rejalarni yangilash, o'qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirishga alohida e'tabor qaratilmoqda. Maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmo'g'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Shuningdek, ushbu yondashuvning talabiga ko'ra maktab o'quvchilari ona tilini muomala-aralashuv taqazo etadigan, axborot olish ehtiyoji talab qiladigan darajada o'rganishi va egallashi zarur, qolaversa, shu tilning chinakam sohibiga aylanishlari uchun kommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati rus tili o'qitish metodikasida yetarlicha o'rganilgan. Metodist-olim O.O.Xarchenko o'z maqolasida bugungi rus tili darsliklari kommunikativ yondashuv asosida yaratilayotganligini uqtiradiva shunga ko'ra ham ta'limning nutqiy kommunikativ yo'nalganlik tamoyilini ajratish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa darslik bilan o'qituvchi ham, o'quvchi ham cheklanib qolishini oldini oladi va o'quvchi har bir fandan olgan bilim, malaka ko'nikmalarini hayotda o'zi mustaqil qo'llay olish imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, dars o'quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir. Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Biz o'qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o'quvchilardan fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutamiz.

Hozirgi zamon darsi 3 ta maqsadni: ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi.

Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni darsdan ko'zlangan maqsad hamda o'quvchilar

imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o`tiladigan mavzu bilan bog`lash o`quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarni ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo`ladigan jihozlarni belgilash va ko`rgazmali qurollar bilan boyitish, qo`shimcha axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratishdir.

Darsga qo`yiladigan asosiy talablardan biri –ta`lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog`lab olib borish samaradorligini oshirishdir.

Darsga qo`yiladigan asosiy talablardan yana biri - barcha didaktik vazifalar darsning o`zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o`quvchilarning darsda oladigan bilimlarining mantiqiy davomi bo`lishi kerak.

Dars davomida o`qituvchi o`quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak. O`tilgan har bir darsning o`quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi.

Eng asosiysi o`quvchi dars o`tishi innovatsion usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo`ladi.

O`zbekiston davlat ta`lim siyosatida o`qituvchining kasbiy tayyorgarligi, mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo`llay olishi, o`quvchiga puxta bilim berishi, erkin, ijodiy fikrlash ko`nikma, malakalarini hosil qila olishi zamon talablaridan biridir.

Interfaol ta`lim jarayonida dars o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interaktiv ingliz so`zidan olingan bo`lib, «Interakt», ya`ni, Inter — bu «o`zaro», «akt» — harakat, ta`sir, faollik ma`nolarini bildiradi.

Interfaol metod – ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati, ta`siri ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaollik – o`zaro faollik, harakat, ta`sirchanlik, o`quvchi-o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi (sub`yekt-sub`yekt) suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi – o`quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro fikr almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi.

Interfaol metodlar o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'yin texnologiyalaridan tashqari interfaol metodlardan "Aqliy hujum", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Savol bering", "Kichik guruhlarda ishlash", "Burchaklar metodi", "Kubiklar", "Pinbord", "Bumerang", "Skarabey", Roven diagrammalari", "Blits-o'yin", "Klaster", "Loyihalash", "Zanjir", "Insedent", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Debat" kabilarni sanab o'tish mumkin. Bu metodlar sinfda o'rganiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni yaratishga, mavzuni muhokama qilish asosida bahs – munozara orqali muammo yechimini topishda yaqindan yordam beradi.

Interfaol metodlar		
O'rganilayotgan metodlarni o'zlashtirishga dav'at qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarni fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish Klaster Aqliy hujum B-B-B chizmasi Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi Semantik xususiyatlar tahlili	Semantik xususiyatlar tahlili B-B-B chizmasi O'qitish bo'yicha qo'llanma Bir-biriga o'rgatish Bir-biridan so'rash Ikki qismli kundaliklar Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar Takrorlash T-chizma Konseptual jadval Venn diagrammasi Nilufar guli Besh minutlik esse O'n minutlik esse

O'qitish jarayonlarida noan'anaviy ta'lim usullaridan: «Konferensiya darsi», seminar darsi, «Aralash darslar», «O'yinchoqlar yordamida dars o'tish», «Kasbga bog'lab dars o'tish», «Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish», «Evrika(o'ylab top)»; ta'limning qiziqarli faol usullaridan: «Kichik va katta guruhlarda ishlash», «Rolli

o'yinlar», «Sahna ko'rinishi», «Krossvordlar yechish», «Zakovat savollari», «test sinov topshiriqlari», «Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish», «Sinkveyn o'yinlari»; shuningdek, ta'limning innovatsion (yangi) usullari: «Modifikatsiyalashgan ta'lim», «Improvizasiya», «Aqliy hujum», «Debat», «tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul», «Klaster usuli», «Muammoli vaziyat», «Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish», «Har kim har kimga o'rgatadi», «Nuqtai nazaring bo'lsin», «Multimedia vositalaridan foydalanish» va boshqalarni qo'llash muhimdir.

Shundan keyin "Aqliy hujum" metodini o'tkazishning bevosita shartlariga o'tish mumkin bo'ladi. ekranda: - maqsadlar, reja va qoidalar aks ettiriladi.

Bu tadbirlarni amalga oshirishga 10 daqiqagacha vaqt talab qilinadi.

XULOSA

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil yetadi. Hozirgi davr talabiga asosan har bir pedagog o'z mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil yetishi taqozo yetiladi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarga chuqur bilim berishi uchun innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

"Aqliy hujum" metodining shiorini tanlash. Iloji boricha "Aqliy hujum"ning shioridan foydalangan ma'qul. Chunki aynan shu shior mutaxassislar komandasini g'oyalarning tezlik bilan tug'ilishiga jalb qiladi. Metodni o'tkazuvchi ekranda bir qancha shiorlarning variantlarini tavsiya qiladi. Masalan,

1. Biz masalani echamiz va muammolar qolmaydi!

2. Muammo o'ta murakkab, biz uni hal qilamiz!

3. Har qanday muammo yagona to'g'ri echimga ega. Agar biz uni topolmasak dahshat bo'ladi!

4. Har qilinmagan muammo asabni taranglashtiradi, kayfiyatni tushiradi, vijdonni qiynaydi. Vahima bizga yarashmaydi!

5. Muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiramiz!

Modellashtirish.

O'qitishning bu usuli o'z ichiga real hayotni qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o'z ichiga oladi.

Qo'llanilishi:

- turli vaziyatlarda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni qo'llashda;

- oddiy va murakkab mehanik va elektrik asboblari yasashda, operativ ko`nikmalar va qaror qabul qilishni amalga oshirishda.
 - xavfli va kechiktirib bo`lmaydigan vaziyatlarda, boshqarish ko`nikmalarini mustahkamlashda;
 - ilgari o`rnatilgan printsiplarni real hayotiy vaziyatlarda qo`llashda.
- Afzalligi:
- o`quvchilar faolligi va jalb qilishning mustahkamlaydi;
 - eslab qolishni kuchaytiradi.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5712-sonli farmoni
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi
3. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo.2020.-194-bet
4. O`. Q. Tolipov va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – Toshkent.Fan. 2006.-260bet
5. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G`ulomova, Sharofat Yo`ldosheva, Sharafjon Sariyev “Ona tili o`qitish metodikasi”. T.: “Nosir”2009
6. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa`dullo Qurunov, Shokir Tursun. Ona tili va o`qish savodxonligi. 2-qism. darslik 2-sinf uchun. T.: 2021-120bet
7. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa`dullo Qurunov, Shokir Tursun. Ona tili va o`qish savodxonligi. 2-qism. 2-sinf uchun mashq daftari. T.: 80bet